

ERKIN VOHIDOVNING “OLTIN DEVOR” ASARIDA BAHO MUNOSABATINING IFODALANISHI

Saida Maksumova

O‘DJTU O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Tel: +998909509943

Pochta: saida2903@mail.ru

O‘zbekiston, Toshkent

Annotatsiya. Ushbu maqolada pragmatikaning markaziy tushunchalaridan biri baho munosabati haqida fikr yuritildi. Pragmatika sintaktik birliklarni nutq vaziyati va kontekst bilan bog‘liqlikda o‘rganadi. Maqolada pragmatikaga, baho munosabatiga doir rus va o‘zbek tilshunoslarining asarlari sanab o‘tildi. Baho munosabatining ifodalanishi Erkin Vohidovning “Oltin devor” asari misolida tekshirildi. Baho munosabati asarda tilning turli sathlarida namoyon bo‘lishi kuzatildi. Subyektning ijobiy va salbiy baho munosabatlari misollar asosida tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar. Sintaktika, semantika, pragmatika, nutq vaziyati, kontekst, subyektiv baho, presuppozitsiya, baho munosabati, denotativ, konnotativ.

Аннотация. В данной статье речь идёт об одном из центральных понятий прагматики оценочном отношении. Прагматика изучает синтаксические единицы в соотношении с речевой ситуацией и контекстом. В статье перечислены работы российских и узбекских лингвистов по прагматике и выражению оценочного отношения. Приведены примеры из произведения Э. Вахидова "Золотая стена". На основе примеров анализировались положительные и отрицательные оценочные отношения субъекта.

Ключевые слова. Синтаксис, семантика, прагматика, речевая ситуация, контекст, субъективная оценка, presupпозиция, оценочная связь, денотатив, коннотатив.

Abstract. In this article, one of the central concepts of pragmatics evaluation relationship is considered. Pragmatics studies syntactic units in connection with the speech situation and context. The article lists the works of Russian and Uzbek linguists on pragmatics and the value relationship. The expression of the value relationship was examined on the example of Erkin Vahidov's "Golden Wall". It was observed that the value relationship is manifested in the work at different levels of language. The subject's positive and negative evaluation relationships were analyzed on the basis of examples.

Key words. Syntax, semantics, pragmatics, speech situation, context, subjective assessment, presupposition, assessment relationship, denotative, connotative.

Bizga ma’lumki, sintaksisning o‘rganish doirasi quyidagi bo‘limlardan iborat.

- 1) belgilar va ularning o‘zaro bog‘lanish usullarini o‘rganuvchi sintaktika;
- 2) belgilarning o‘zi ifodalayotgan obyektga munosabatini o‘rganuvchi semantika;
- 3) qo‘llanilayotgan belgiga subyektning munosabati va belgilarning bu belgidan foydalanayotgan subyektga ta’sirini o‘rganuvchi pragmatika. [5:51]

Pragmatikaning markaziy tushunchalaridan biri baho sanaladi. Lisoniy birliklarning mazmuniy tuzilishidagi baho semasi lingvistik pragmatikaning tekshirish obyekti hisoblanadi. Pragmatika sintaktik birliklarni nutq vaziyati va kontekst bilan bog‘liqlikda o‘rganadi.

O‘zbek tilshunosligida til birliklarining pragmatik tabiatini o‘rganishga dastlab XX asrning 80-yillarida e‘tibor qaratildi. Bu davrda A.Nurmonov[4:42], N.Mahmudovlarning[3:28] ko‘makchilar hamda ritorik so‘roq gaplarning presuppozision xususiyatlari tavsifiga doir ilmiy maqolalari e‘lon qilindi. Bu masala keyingi davrlarda ayrim morfologik birliklar hamda matn tahlili misolida maxsus tadqiqot obyekti bo‘ldi.[8:23]

Pragmatika tilshunoslik fanining yangi sohalaridan bo‘lib, u bir qancha masalalarni o‘z ichiga oladi. Lingvistik pragmatikaning umumnazariy masalalari quyidagilardan iborat: til birliklarining nutq vaziyati, kontekst bilan bog‘liq jihatlari, kishilar o‘rtasidagi munosabatni ifoda etuvchi nutqiy etiketlar, nutqning ijtimoiy xoslanishi, ifodaning subyektiv modal aspektiga aloqador kirish, baho bildiruvchi so‘z va vositalar, insonning ichki ruhiyatini ifoda etuvchi diskurs hamda presuppozisiya hodisasini o‘rganish. [2:49]M.Hakimov ham shaxs va uning ruhiy holati bilan bog‘liq bo‘lgan barcha nutqiy ifodalar pragmatik tadqiqotlar sirasiga kirishini e‘tirof etadi.[1:38]

Semantika bilan shug‘ullanuvchi Ye.M.Volf, N.A.Arutyunova, S.S.Xidekel, G.G.Kashel, A.A.Ivin kabi rus tilshunoslarning asarlarida baho munosabatiga doir ma‘lumotlarni uchratamiz. A.G‘ulomov, A.Hojiyev, R. Qo‘ng‘urov, R.Rasulov, R.Hadyatullayev, Z.Ma‘rufov, A.Abdullayev kabi o‘zbek tilshunoslari tilning turli sathlarida baho ifodalovchi vositalar tadqiqiga doir asarlar yozishgan. “Baho munosabati va uning o‘zbek tilida ifodalanishi” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyada baho munosabatiga doir masalalar atroflicha yoritib bergan.[6:23]

Baho mazmuniy birlik sifatida tilda namoyon bo‘ladi hamda turli shakllar orqali o‘z ifodasini topadi. Baho tilning barcha sath birliklari orqali ifodalanadi va alohida semantik maydonni tashkil etadi. Bu esa baho semantik maydonining til semantik strukturasi alohida o‘rin egallashini ko‘rsatadi.

Ushbu maqolamizda E.Vohidov qalamiga mansub “Oltin devor” asarida ifodalangan baho munosabati haqida fikr yutamiz.Baho ifodalashning barcha usullari ichida leksik usul eng sarmahsul hisoblanadi. So‘z leksik ma‘no ifodalash bilan birga, nutqiy vaziyatda subyektiv bahoni yoki so‘zlovchi va tinglovchining munosabatini ham ifodalaydi. Bu haqda V.V.Vinogradov shunday deydi:“So‘z nafaqat grammatik,

leksik ma’nonigina bildiradi, shu bilan birga, obyektga subyektning bahosini ham namoyon etadi”.[9:310]

Quyida asardan parchalar keltiramiz:

Nodir-*Hoy puchuq! Shimimni dazmollab qo‘ydingmi?* Puchuq so‘zi qanshari past, burni yassi, yopishgan, kichik yoki shikastlangan ma’nolarni anglatadi[12:325] Bu so‘z matndan tashqarida aytilsa, inson organizmidagi nuqsonni bildiradi va salbiy ma’noni beradi. Berilgan misolda puchuq so‘zi erkalash, suyish ma’nosida qo‘llanib, nutq subyektining ijobiy baho munosabatini aks ettirgan.

E.Vohidov metaforik ma’no kasb etuvchi bir so‘zni ham ijobiy, ham salbiy ma’noda qo‘llaydi. Masalan, *shayton* so‘zining asl ma’nosi “din yo‘lidan ozdiruvchi, jinoyatga, razolatga boshlovchi yovuz ruh yoki yovuz ruhlarning boshlig‘i; iblis bo‘lib”[13:534] bu so‘z adib asarida ko‘chma ma’noda ayyor, aldamchi ma’nosida, asosan, insonga nisbatan qo‘llaniladi:

Mo‘min-*Ha, sariq shayton meni sen yana vasvasaga solyapsanmi? Yo‘q, gapim gap. Men seni ertagayoq olib borib topshiraman. Men yurt uchun jonimni ham ayamadim, topib olgan oltinlarimni ayarmidim?* Bu gapda sariq shayton deb topib olingan tillaga qarata aytilgan. Asar qahramoni Mo‘minning tinchligi buzilgani, halovati ketgani, yomon fikrlarga borayotgani uchun shayton so‘zini qo‘llagan va unga nisbatan salbiy baho munosabatni bildirgan.

Qilichbek – *Zuhra. Mo‘minning qizi. Bu shayton qizda juda gap ko‘p.* Berilgan parchada Qilichbek qizning sho‘x, shaddod, o‘ynoqi kabi xislatlarni nazarda tutib, subyektining ijobiy munosabati, ya’ni havasi, zavqlanishi kabilarni ifoda etish uchun qo‘llangan.

Abdusalom-*Sening otang ham o‘zingga o‘xshagan judayam ayyor, tulki odam edi. Mana shu devorni olishda ham, rejani to‘rt enlik beridan olganlar.*

Saidmalik – *Bu ish ammangiz emas. Hali hukumat odamlarini bilmaysan. Ular juda ham usta bo‘ladi. Ammo men ham chakana emasman. Ularning mingtasiga chap berib ketaman. Axir, meni “Saidmalik tulki” deydilar-a?*

Birinchi misolda tulki ko‘chma ma’noda qo‘llangan bo‘lib Abdusalom qo‘shnisining otasiga salbiy munosabatda bo‘lganligi ifodalangan. Ikkinchi misolda esa *Axir, meni “Saidmalik tulki” deydilar-a?* jumlasini berilgan. Bunda Saidmalik o‘zidan faxrlanishi, har bir ishni ayyorlik, ustalik bilan bajarishini bo‘rttirib ifodalagan va ijobiy baho munosabatini ifodalangan.

Matnda berilgan bir so‘z ham ijobiy, ham salbiy ma’noni berishi kuzatildi.

Saidmalik -*Barakalla. Sen menga shogirdgina emas, tug‘ishgan ukamdan ham afzalsan.* Shogird leksemasi tarkibida biror hunar yoki kasbni o‘rgatish, egallash

uchun o‘sha hunar yoki kasb egasiga shogird tushishlik ma‘nosi mavjud. Shogirdlik ijobiy xislat, lekin yuqoridagi misolda harom yo‘l bilan pul topadigan Saidmalikka shogird bo‘lish esa salbiy baho munosabat bildiradi.

Saidmalik-*Menga qara. Uyda uch-to‘rtta gilam bor. Yig‘ishtirib anavi Abdusalom galvarnikiga olib chiqib qo‘ygin.* Ushbu misolda galbars so‘zi qo‘llangan. Bu so‘zga O‘zbek tilining izohli lug‘atida shunday ta‘rif berilgan. “O‘zining yaramas xulqi bilan ajralib turadigan shaxs;tentak,nodon” [11:478] Demak, Saidmalik Abdusalomni tentak, ko‘p ishlarga aqli yetmaydigan nodon deb salbiy baho bergan.

Mo‘min-*Bir hisobda bu garangning ham gapida jon bor.* O‘zbeklar nutqida qulog‘i eshitmaydigan kar odamga nisbatan garang so‘zi qo‘llanadi. Ammo E.Vohidov bu so‘zni ko‘chma ma‘noda qo‘llab boshi qotgan, nima qilarini bilmay gangib qolgan ma‘nosini ifodalagan. Bu so‘zni qulog‘i eshitadigan insonga nisbatan qo‘llash orqali nutq subyektining salbiy baho muhosabati aks etgan.

Shuningdek, bu asarda *so‘tak, jinni, qari mushuk, alvasti, iblis, ahmoq, muttaha*m so‘zlari uchradiki, bular orqali subyektning salbiy baho munosabati ifodalanganini ko‘ramiz.

Dilorom-*Juda soz. Ajoyib dugonalarining bor ekan. Biri biridan quvnoq, biri biridan mehribon.* Bu misolda quvnoq, mehribon so‘zlari orqali subyektning ijobiy baho munosabati ifodalangan.

Qilichbek -*Yoki xo‘jayin biron narsani o‘sha yerga ko‘mdirmoqchimi? Yo‘q, bizning xo‘jayin unaqa anoyilardan emas.*

“Anoyi-o‘z ishiga puxta emas, birovning so‘ziga laqqa uchadigan; sodda, go‘l” [11:87] Demak, bu gapda anoyilardan emas deb, o‘z ishiga puxta, birovlarning gapi bilan emas, o‘zining fikri bilan ish qiladigan, uddaburon inson nazarda tutilib, Qilichbek xo‘jayiniga ijobiy baho munosabatini bildirgan.

E.Vohidov asarda o‘xshatish vositasi orqali subyektning baho munosabati ifodalanganligini ko‘ramiz. Masalan,

Abdusalom -*Siznikida to‘y qilib bo‘ladimi? Olqindiday hovlingiz bor. To‘y bo‘lsa, mana menikida bo‘ladi.*

Mo‘min-*Hali sizning hovlingiz katta bo‘ldimi? To‘rtta odam kirsam, beshinchisi laylakka o‘xshab bir oyog‘ini ko‘tarib turishi kerak. To‘y biznikida bo‘ladi.*

Abdusalom-*Bedananing tuxumiday kallangizga nima fikr kelib qoldi?*

Birinchi gapda qo‘llanilgan olqindi so‘zi “qayta-qayta ishlatilaverib yupqa bo‘lib ketgan sovun, sovun qoldig‘i” [12:120] lug‘aviy ma‘nosiga ega bo‘lib, hovlining hajmi o‘xshatish asosida olqindiga tenglashtirilgan. Shoir bu o‘rinda kichik hovli

birikmasi o‘rniga olqindiday hovli birikmasini qo‘llaydi. Natijada nafaqat hovlining hajmi to‘g‘risidagi, balki nutq subyektining salbiy bahosi asosida mensimaslik, pastga urish, kamsitish kabi munosabatlari yuzaga chiqadi. Ikkinchi gapda ham o‘xshatish vositasi orqali salbiy baho munosabati bo‘rttirib berilgan. Uchinchi gapda esa kalla so‘zi qo‘llangan. Ma‘lumki, bosh so‘zining sinonimi kalla bo‘lib salbiy ma‘noni beradi. Shu salbiy so‘z oxshatish vositasi bilan birga kelib “sizdan qanday fikr chiqar edi, fikrlash doirangiz tor” kabi ma‘nolar ifodalanib subyektning salbiy baho munosabati aks etgan.

Keyingi misollarda baho munosabati maqol va iboralar orqali ifodalanganligini ko‘ramiz.

Mo‘min-Men eng razil, eng pastkash odamman. Yurtning tuzini ichib, tuzlig‘iga tupurgan odamman. Bu misolda Bataniga xiyonat qilgan, nonko‘rlik qilgan, yaxshilikka yomonlik qaytargan kabi xislatlar ifodalanib asar qahramoni o‘ziga salbiy baho munosabatini bildirgan.

Dilorom-Meni kechiring, dada, men ko‘ngil ko‘yiga yuradigan, otasining yuziga oyoq bosadigan qizlardan emasman. Bu gapda esa “ko‘ngil ko‘yiga yuradigan”, “otasining yuziga oyoq bosadigan” iboralari berilgan. Asar qahramoni Dilorom ko‘ngliga kelgan ishni qilmaydigan, otasini uyaltirmaydigan, xafa qildirmaydigan qizlardanman deb, o‘ziga ijobiy baho munosabatini bildiradi.

Ba‘zan adib iboralarning komponentlarini o‘zgartirib baho munosabatini bo‘rttirib ifodalaydi. Masalan,

Abdusalom – Ho‘, senga aytyapman, tilingni tiy. Ko‘p baqirma (o‘choq yonidan kaftgirni olib Mo‘minga yaqin keladi). Xuddi manavi bilan kallangdan deraza ochib qo‘yaman. Aslida peshonangdan darcha ochib qo‘ymoq iborasi mavjud bo‘lib, jazolamoq, qo‘rqitmoq ma‘nolarini beradi. Shoir peshona o‘rniga kalla, darcha o‘rniga deraza so‘zini almashtirish orqali subyektning salbiy munosabatini bildirib, konnotativ ma‘noni hosil qilgan.

“Subyektiv baho so‘zlovchining obyektiv borliqqa va nutqiga ijobiy yoki salbiy munosabatlarning ifodalanishidir”-deydi R.Qo‘ng‘urov[7:38]

Abdusalom –O‘, men to‘y qilmoqchiman, to‘ychiq emas. El –yurtning oshini yegan odamman. Ushbu gapda to‘y so‘ziga qo‘shilgan -chiq affiksi o‘zakdan anglashilgan voqelikning tor doirada o‘tkazilishini, ya‘ni kichik to‘y ma‘nosini ifodalashga xizmat qilgan. Bu o‘rinda ushbu affiks orqali so‘zlovchining kamsitish, mazax qilish kabi salbiy baho munosabatlari shu so‘zning konnotativ ma‘nosi sifatida yuzaga chiqqan.

Abdusalom -Sizdaqa boyvachchaning o‘ntasini do‘kon-po‘koni, ichak-chavag‘i bilan sotib olishga qurbim yetadi. Bu gapda –vachcha qo‘shimchasi qo‘shilib salbiy baho munosabatini bergan.

Keyingi misollarda sintaktik usul bilan baho munosabati ifodalanganligini ko‘rib chiqamiz.

Mo‘min -He,men yamoqchining qiziga zor emasman. Mening o‘g‘limga kimlar qizini bermaydi? Mening o‘g‘limga kimlar qizini bermaydi? ritorik so‘roq gapi orqali “Mening o‘g‘limga hamma qizini beradi” presuppozitsiyasi ifodalanadi. Bunday qo‘llanishda nutq subyektining o‘z o‘g‘lidan faxrlanish,g‘ururlanish tuyg‘usi bo‘rttirilgan, natijada o‘g‘liga nisbatan ijobiy baho munosabati ifodalangan.

E.Vohidov asarlarida ritorik so‘roq gaplarning maxsus intonatsiya yordamida hosil qilingan ko‘rinishlarini ham uchratish mumkin. Shoir bunday ritorik so‘roq gaplarni ko‘proq dialogik nutqda qo‘llaydi. Intonatsiya yordamida tuzilgan bu turdagi ritorik so‘roq gaplar ironiyani yuzaga chiqarish uchun xizmat qilgan.

Abdusalom – Shu, bitta tilla tish qo‘ydirmoqchiman.

Saidmalik – Tilla tish? O‘zlarigami? Obbo qo‘shniyey. Tuya hammomni orzu qilibdi-da.

Bu dialogik nutqda qo‘llangan “tilla tish?” so‘roq gapi maxsus ohang yordamida tuzilgan bo‘lib, nutq subyektining salbiy baho munosabati,ya’ni taajjubi ifodalangan. Bu so‘roq gap oprali “sen kambag‘alsan, tilla tish qo‘ydirishga qurbing yetmaydi, senda tilla tugul, oddiy chaqa ham yo‘q” kabi ma’nolar ifodalangan. Shu bilan birga Tuya hammomni orzu qilibdi-da maqolini keltirib subyektini pastga urish, mensimaslik,kamsitish kabi salbiy baho munosabati yuzaga chiqqan.

Xullas, baho munosabati matn tarkibida,kontekstda yuzaga chiqadi.Bu esa yuqorida aytilganidek, pragmatikaning o‘rganish obyektiga kiradi. Baho baholanayotgan obyektga so‘zlovchining munosabatini ifodalaydi. Shuning uchun u so‘zlovchi shaxs va predmet o‘rtasidagi munosabat asosiga quriladi.

O‘zbek tilida baho ifodalanishining rang-barang vositalari mavjud. Bu esa o‘zbek tili imkoniyatlarining kengligi, ma’lum bir axborotni ifodalash bilan birga, qo‘shimcha axborot ifodalash imkoniyatining boyligi bilan ajralib turadi. Ana shunday qo‘shimcha axborotlardan biri baho munosabatining ifodalanishidir. Baho ma’nosi obyekt va subyekt munosabatlari asosida yuzaga chiqadi, ya’ni so‘zlovchi (subyekt) obyektidan ta’sirlansa yoki unga o‘z munosabatini bildirish istagi tug‘ilsa, u o‘z fikrini bayon qiladi. Natijada baho ma’nosi yuzaga chiqadi. Bahoning belgisi obyektga bog‘liq bo‘lib, shu asosda ijobiy, betaraf, salbiy munosabatlardan biri

oydinlashadi. Bahoning denotat tarkibida bo‘lishi obyektiv bahoni yuzaga keltiradi. Konnotativ ma’noda yuzaga kelgan baho subyektiv bahoni tashkil etadi.

“Oltin devor” komediyasidagi baho munosabati tilning turli sathlari, ya’ni leksik, morfologik, sintaktik sathlarda ifodalanishini ko‘rib chiqdik. Misollar tahlilidan ko‘rinadiki, asar komediya janrida bo‘lgani uchun ijobiy baho munosabatiga ko‘ra salbiy baho munosabati ko‘proq qo‘llangan. Salbiy va ijobiy baho munosabati bildirilishi natijasida asarning ekspressivligi ortadi, kitobxonga estetik zavq beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hakimov M. Lingvistik tadqiqotning pragmatik aspektiga doir: O‘zbek tilshunosligiga oid tadqiqotlar // Respublika yosh tilshunoslarining an’anaviy ilmiy konferensiyasi materiallari. – Toshkent, 1993. – B.38-40.
2. Hakimov M. O‘zbek tilida matnning pragmatik talqini: Filol. fanlari d-ri ... diss. avtoref. – Toshkent. 2001. – 49 b
3. Mahmudov N. Presuppozisiya va gap // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1986. – №6. – B. 28-31.
4. Nurmonov A. Ko‘makchili konstruksiyalar presuppozisiyasi // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1986. – №6. – B. 42-45.
5. Новиков А.А. Семантика русского языка. - М.: Высшая школа, 1982.- С.51.
6. Qambarov G‘.S. Baho munosabati va uning o‘zbek tilida ifodalanishi Filol. Fan. diss. Avtoreferati T.-2008. 23 b.
7. Qo‘ng‘urov R. Subyektiv baho formalarining semantik va stilistik xususiyatlari T.: Fan 1980 B.38
8. Rahimov U. O‘zbek tilida yuklamalar presuppozisiyasi: Filol. fanlari nomzodi ... diss. avtoref. – Samarqand, 1994. – 23 b.
9. Виноградов В.В. О категории модальности и модальных слова в русском языке. - М., 1961.
10. Vohidov E. Saylanma birinchi jild Ishq savdosi Oltin devor 368 b.
11. O‘zbek tilining izohli lug‘ati “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi 1-jildli, T.-2006
12. O‘zbek tilining izohli lug‘ati “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi 3-jildli, T.-2007
13. O‘zbek tilining izohli lug‘ati “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi 4-jildli, T.-2008